

## **MAKTAB PSIXOLOGINING PEDAGOGLAR BILAN OLIB BORADIGAN ISHLAR MAZMUNI**

*Djanzakova Xolida Razakovna*

*Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani MMTB  
qarashli 27-umumiy o'rta ta'lif maktabi psixolog*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktab psixologining pedagogik jamoa bilan hamkorlikda olib boradigan ishlari, ularning mazmun-mohiyati va samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan. Psixologning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarning psixologik holatini o'rganish, ijtimoiy-munosabatlar tizimini rivojlantirish hamda pedagogik jamoa bilan birgalikda individual yondashuv asosida ta'lif-tarbiya jarayonini takomillashtirishdan iborat. Annotatsiyada shuningdek, psixolog va o'qituvchilar o'rtasidagi uzviy aloqalar, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya va maslahat berish faoliyatlarining maktab muhitida qanday amalga oshirilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu hamkorlik bolalarning rivojlanishiga kompleks yondashuvni ta'minlaydi hamda sog'lom psixologik muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Maktab psixologi, pedagogik jamoa, hamkorlik, psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixokorreksiya, maslahat berish, individual yondashuv, o'quvchi rivojlanishi, psixologik muhit.

### **KIRISH**

Hozirgi zamon ta'lif tizimi nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarning psixologik, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Bu jarayonda maktab psixologining o'rni beqiyosdir. Psixologning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarning individual xususiyatlarini, emotsional holatini, ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlab, ularga zarur psixologik yordam ko'rsatishdir. Bunday masalalarni samarali hal qilishda esa pedagogik jamoa bilan yaqin hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Pedagogik jamoa – bu o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ma'muriyat va boshqa mutaxassislar (defektolog, logoped, ijtimoiy pedagog va boshqalar)dan iborat bo'lib, ularning o'zaro hamkorligi o'quvchining to'laqonli rivojlanishi uchun qulay psixologik-pedagogik muhit yaratadi. Maktab psixologi ushbu jamoaning ajralmas a'zosi sifatida, barcha ishtirokchilar bilan uzviy aloqada bo'lishi, diagnostika, profilaktika, korreksiya va maslahat berish ishlarini muvofiqlashtirishi lozim. Maktab psixologining pedagogik jamoa bilan olib boradigan faoliyati, hamkorlik shakllari, vazifalari va bu jarayonning samaradorligini oshirish yo'llari atroflicha yoritiladi. Shuningdek, psixologik xizmatning maktabdagi umumiy ta'lif-tarbiya jarayoniga integratsiyalashuvi, o'quvchilar bilan ishlashdagi innovatsion

yondashuvlar ham ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda maktab psixolog faqatgina muammoli holatlarni aniqlash va bartaraf etish bilan cheklanmaydi, balki u butun ta'lim-tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Psixologning roli – bu o'quvchi shaxsining individual rivojlanish yo'nalishini aniqlash, uning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish, ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash va salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks yondashuvni amalga oshirishdir. Shuningdek, zamonaviy maktabda o'quvchilar bilan bog'liq muammolarni faqat bitta mutaxassis yechib bera olmaydi. Shu sababli maktab psixologi pedagogik jamoa bilan birgalikda ishlashi, har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual yondashuv asosida ish olib borishi zarur. Bunday hamkorlik ta'lim sifatini oshirish, sog'lom psixologik muhit yaratish, ota-onalar bilan munosabatlarni mustahkamlash va maktabda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik jamoa bilan uzviy aloqada bo'lgan maktab psixologi o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati, sinfdoshlari bilan muloqoti, o'qituvchilar bilan munosabatlaridagi muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha tizimli ish olib boradi. Bunday tizimli yondashuv esa ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va ularni hayotga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

### **Asosiy qism**

Maktab psixologining pedagoglar bilan hamkorlikdagi faoliyati o'quvchilarning shaxsiy va psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish hamda sog'lom psixologik muhit yaratishga qaratilgan. Ushbu hamkorlik quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

#### **1. O'quvchilarni o'rGANISHDA YORDAM BERISH**

Psixolog pedagoglarga o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlari (temperament, diqqat, xotira, hissiyor, xarakter, qobiliyat va h.k.) haqida axborot beradi. Bu esa o'qituvchiga har bir o'quvchiga individual yondashuv asosida dars o'tishda yordam beradi.

#### **2. Psixodiagnostik ma'lumotlarni tahlil qilish**

Psixolog tomonidan o'tkazilgan testlar va kuzatuвлar natijasi bo'yicha o'qituvchilar bilan tahliliy suhbatlar olib boriladi. Masalan, o'quvchining stress darajasi, ijtimoiy moslashuvi yoki o'qishga bo'lgan motivatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishtiriladi.

#### **3. Konsultatsiyalar o'tkazish**

O'qituvchilarga dars jarayonida yoki sinfda yuzaga kelgan psixologik muammolar yuzasidan maslahatlar beriladi. Masalan, tajovuzkor, tortinchoq yoki o'z-o'ziga ishonchi past o'quvchilar bilan qanday ishslash kerakligi bo'yicha individual yoki guruhiy maslahatlar tashkil etiladi.

#### **4. Trening va seminarlar o‘tkazish**

Pedagoglar uchun kommunikatsiya, konfliktlarni boshqarish, stressni yengish, darsdagi psixologik muhitni yaxshilash bo‘yicha psixologik treninglar, seminar-treninglar va metodik tavsiyalar tayyorlanadi.

#### **5. Ijtimoiy-pedagogik kuzatuvda hamkorlik**

Sinf rahbarlari va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda muayyan o‘quvchilarni kuzatib borish, muammoli holatlarda (oilaviy ziddiyat, zo‘ravonlik, tajovuzkorlik) birgalikda chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

#### **6. Tarbiyaviy ishlarni muvofiqlashtirish**

Psixolog pedagoglar bilan birgalikda sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar (psixologik o‘yinlar, munozaralar, viktorinalar)da ishtiroy etadi va ularni psixologik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi.

#### **7. Muammoli o‘quvchilar bilan ishlashda yordam**

Pedagoglar tomonidan aniqlangan muammoli o‘quvchilar bilan individual ishslash rejalashtiriladi va psixolog bu jarayonda o‘qituvchilarga metodik ko‘rsatmalar beradi.

Maktab psixologining pedagoglar bilan olib boradigan ishlari maktabdagagi ta’lim-tarbiya tizimini yaxshilash, o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, individual yondashuvni ta’minalash va sog‘lom muhit yaratishga xizmat qiladi. Ushbu hamkorlik nafaqat o‘quvchilar, balki pedagoglarning psixologik madaniyatini yuksaltirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy stress — bu pedagoglar va maktab xodimlarining ish faoliyati davomida yuzaga keladigan ruhiy zo‘riqish, charchoq va psixologik bosimdir. U ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, pedagoglarning ishga bo‘lgan motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun kasbiy stresslarni oldini olish va kamaytirish maktab psixologining muhim vazifalaridan biridir.

#### **1. Stress sabablarini aniqlash**

Maktab psixologi pedagoglar o‘rtasida kasbiy stressni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash uchun psixodiagnostik tadqiqotlar o‘tkazadi. Bu omillar orasida ish yuklamasi, noaniq vazifalar, o‘quvchilar bilan muammolar, ma’muriyat bilan munosabatlar va boshqalar bo‘lishi mumkin.

#### **2. Psixologik konsultatsiyalar o‘tkazish**

Pedagoglarga stress bilan kurashish usullari, vaqtini boshqarish, dam olish va ruhiy barqarorlikni saqlash bo‘yicha individual yoki guruhiy maslahatlar beradi.

#### **3. Stressni kamaytirishga yo‘naltirilgan treninglar tashkil etish**

Stressni boshqarish, dam olish texnikalari, meditatsiya va relaksatsiya mashg‘ulotlari, ish joyida salbiy holatlardan chiqish strategiyalari bo‘yicha treninglar o‘tkazadi.

#### **4. Sog‘lom ish muhitini yaratishda yordam berish**

Psixolog pedagogik jamoa bilan hamkorlikda ish sharoitlarini yaxshilash, muloqotni mustahkamlash va ijobiy psixologik muhit yaratish bo'yicha tavsiyalar beradi.

### **5. Konfliktlarni hal etishda vositachilik qilish**

Pedagoglar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda mediatorlik qiladi, bu orqali stress va zo'riqishni kamaytirishga yordam beradi.

### **6. Individual psixokorrektiv yordam ko'rsatish**

Agar pedagoglarda kuchli stress yoki charchoq holatlari aniqlansa, ularga maxsus psixokorrektiv mashg'ulotlar, terapiya yoki boshqa zarur yordamlar ko'rsatadi.

### **7. Ma'muriyatga tavsiyalar berish**

Maktab ma'muriyatiga pedagoglarning kasbiy stressini kamaytirish uchun tashkilot darajasida choralar ko'rishni taklif qiladi (ish yuklamasini kamaytirish, rag'batlantirish tizimi, dam olish tartibini yaxshilash va h.k.).

Kasbiy stresslarni oldini olishda maktab psixologining roli pedagoglarning ish faoliyatini samarali va barqaror olib borishida muhim ahamiyat ega. Psixologning tizimli yondashuvi va kasbiy stressni kamaytirishga qaratilgan faoliyati pedagogik jamoaning sog'lom va ijodiy muhitda ishlashini ta'minlaydi.

### **Xulosa**

Maktab psixologining pedagogik jamoa bilan hamkorligi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixolog pedagogik jamoaning faol a'zosi sifatida o'quvchilarning psixologik holatini o'rganish, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ta'lim muhitida yuzaga keladigan psixologik muammolarni bartaraf etishda faol ishtirok etadi. Pedagogik jamoa bilan uzviy hamkorlik orqali maktab psixologi individual yondashuvni ta'minlaydi, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi, shuningdek, stress va boshqa psixologik muammolarni oldini olishga qaratilgan psixologik yordam ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatining oshishiga, sog'lom va ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, maktab psixologining pedagoglar bilan olib boradigan faoliyati ularning kasbiy stresslarini kamaytirish, ish samaradorligini oshirish va o'z-o'zini rivojlantirishiga ko'maklashadi. Shu bois maktab psixologining roli nafaqat o'quvchilar, balki butun pedagogik jamoaning ruhiy salomatligi va professional faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Umuman olganda, maktab psixologining pedagogik jamoa bilan birgalikdagi ishlari o'quv jarayonining kompleks va samarali tashkil etilishida ajralmas tarkibiy qismdir hamda maktab ta'limining sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Islomova, N. (2019). Ta'lim muassasalarida stressni boshqarish metodlari. Toshkent: «Pedagogika» jurnali, 3-son.

2. Sharipov, D. (2017). Ta'lim psixologiyasi. Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti.
3. Rasulov, D. (2019). Maktab psixologining zamonaviy yondashuvlari. Toshkent: Ta'lim akademiyasi nashri.
4. Mamatqulova, D. A. (2019). “Maktab psixologining pedagoglar bilan hamkorligi”. *Pedagogika va Psixologiya* jurnalı, 3(45), 24-30
5. Internet materiallari